

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**V RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

AVGUST, 2025-YIL



KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**V RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-280-0

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 96 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 11-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda "O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lim istiqbollari" nomli V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lim, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

ISBN 978-9910-09-280-0

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

<i>Туляганов Фатхулло, Арифджанов Алишер</i> АНАЛИЗ ОСНОВНЫХ ПРИНЦИПОВ СОВРЕМЕННОГО МЕНЕДЖМЕНТА КАЧЕСТВА	5-10
<i>Мамарасулов Хасан, Арифжанов Алишер, Туляганов Фатхулло</i> ОРГАНИЗАЦИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПО ОБЕСПЕЧЕНИЮ ЕДИНСТВА ИЗМЕРЕНИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	11-18
<i>Agzamov Mirxosil, Nosirov Xasanbek, Xikmatullayev Rustam, Abdusalomov Zafar, Ismoilov Muxammadismoil</i> PAHTA HOM-ASHYOSINI QAYTA ISHLASH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN TEXNOLOGIK MASHINALARNING TAHLILI	19-23
<i>Muhitdinova Umida, Turdibayeva Dildora, Xalilov Oybek, Muminxodjayev Sunnatilla</i> SIRT G'ADIR-BUDURLIGI NAMUNALARI: TURLARI, QO'LLANILISHI HAMDA ASOSIY PARAMETRLARI	24-29
<i>Muminxodjayev Sunnatilla, Hakimova Nargiza, Rakhimova Sevara, Muhitdinova Umida</i> KO'CHMA LABORATORIYA YARATISH: AHAMIYATI, TUZILISHI VA ISTIQBOLLARI	30-32

TARIX FANLARI

<i>Raimjonov Ziyoxiddin</i> AVESTO QADRIYATLARINING BUGUNGI KUNDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	33-35
<i>Mamajanov Azizbek</i> ANDIJON DENGIZI YOXUD ANDIJON SUV OMBORI TARIXI	36-39
<i>Baxranov Sherzod</i> SOVET ITTFOQI DAVRIDA BOSHOQLI EKNLARNI TADQIQ ETISH TARIXIDAN.....	40-43
<i>Meliboyeva Munisabonu</i> MILODDAN AVVALGI II-I ASRLARDA IPAK YO'LI BO'YLAB ELITA QABR INSHOOTLARIDA ME'MORIY VA MADANIY SINTEZ	44-47

IQTISODIYOT FANLARI

<i>Hakimova Yulduz</i> TO'G'RIDAN – TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA INVESTITSION MUHIT JOZIBADORLIGIDA USTUVORLIKKA EGA MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA MAMLAKATIMIZDA BU YO'NALISHLARDA OLIB BORILAYOTGAN ISHLAR	48-53
---	-------

FALSAFA FANLARI

<i>Abdulhayev Azizbek</i> HARBIY XIZMATCHILARNING AXLOQIY ONGINI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY G'OYANING RO'LI	54-58
<i>Xo'jayev Davron</i> O'RTA ASRLAR SHARQ RENESSANSIDA GUMANIZIM FALSAFASINING NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI	59-63

FILOLOGIYA FANLARI

<i>Sadullayeva Muxlisa</i> ADABIYOTDA BADIY KONFLIKT SHAKLLARI.....	64-68
--	-------

<i>Yusufova Farangiz</i> HALIMA XUDOYBERDIYEVA IJODIDA RUHIY EVRILISH.....	69-72
Мамарасулов Умиджон ПРОБЛЕМЫ СОХРАНЕНИЯ ОРИГИНАЛА ПРИ ПЕРЕВОДЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНО-ВЫРАЗИТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ НА ПРИМЕРЕ РОМАНА Э.М. РЕМАРКА «НА ОБРАТНОМ ПУТИ»	73-81
<i>Мамарасулов Умиджон</i> ТИПОЛОГИЯ ПЕРЕВОДЧЕСКИХ ТРАНСФОРМАЦИЙ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ХУДОЖЕСТВЕННОСТЬ НА ПРИМЕРЕ РОМАНА Э.М. РЕМАРКА «НА ОБРАТНОМ ПУТИ»	82-89
PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jo'rayeva Madinaxon</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ILM-FANNI 2030-YILGACHA RIVOJLANTIRISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR	90-91
ARXITEKTURA FANLARI	
<i>Mustafayeva Madina</i> ZAMONAVIY ARXITEKTURADAGI ERGONOMIK DIZAYNNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	92-95

FILOLOGIYA FANLARI

ADABIYOTDA BADIY KONFLIKT SHAKLLARI

Sadullayeva Muxlisa Xamrayevna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil izlanuvchisi

Email: muxlissadullayeva3@gmail.com

Tel: +998 97 888 27 21

ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-4329-7751>

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada sotsiologiya sohasiga oid konfliktologiya fani va uning ahamiyati haqida ma'lumot beriladi. Konflikt tushunchasining badiiy adabiyotdagi funksiyasi tahlil qilinadi. Badiiy konflikt turlari va shakllari haqida hikoya janri doirasida misollar orqali tushuntiriladi. O'zbek, ingliz, rus adabiyotshunos olimlarining adabiyot nazariyasida konflikt turlari bo'yicha tasniflari qiyoslanadi. Ular orasidagi tavofutlar aniqlanadi. Adabiyotshunos olimlar: Terri Iglton, Robbins, To'xta Boboyev, Izzat Sulton, Abdulla Ulug'ov, Dilmurod Qur'onov kabi nazariyotchilarning fikrlari keltirilib, misollar beriladi. Konfliktning hikoya janridagi ahamiyati xususida to'liq fikr yuritiladi. Bugungi kunda yozilayotgan hikoyalarning mohiyatini yoritishda badiiy konfliktning vazifasi, maqsadi qanday ekanligi tahlil qilinadi. Zamondosh yozuvchilar Isajon Sultonning "Turmush", "Qismat", Nazar Eshonqulning "Qo'l", "Shamolni tutib bo'lmaydi" asarlarida badiiy ziddiyatning ko'rinishlari haqida batafsil ma'lumot beriladi. Asarlar adabiyotshunoslikning sotsiologik va psixologik metodlari orqali tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: konfliktologiya, badiiy konflikt, Terri Iglton, To'xta Boboyev, ijtimoiy konflikt, psixologik konflikt, shaxsiy konflikt, sotsial metod, psixologik metod.

RELIGIOUS FIXED EXPRESSIONS IN MEDICAL DISCOURSE

Sadullayeva Muxlisa Xamrayevna

Independent researcher of Tashkent State University of Uzbek language and Literature named after Alisher Navoi

Annotation. this article covers the science of conflict science and its importance in the field of sociology. The function of the concept of conflict in fiction is analyzed. The types and forms of artistic conflict are explained through examples within the narrative genre. In the theory of literature, the classifications of Uzbek, English, Russian literary scholars by type of conflict are compared. The taut between them are determined. Examples are given by the opinions of such theorists as: Terry Igleton, Robbins, Tukhta Boboyev, Izzat Sultan, Abdullah Ulughov, Dilmurod Qur'onov. Full consideration is given to the significance of conflict in the narrative genre. In highlighting the essence of the stories being written today, it is analyzed what is the function, purpose of the artistic conflict. Contemporary writers about the manifestations of artistic conflict in Isajan Sultan's "Marriage", "Fate", Nazar Eshonqul's "Hand", "The wind cannot be caught".

Key words: conflict, artistic conflict, Terry Igleton, Tukhta Boboyev, social conflict, psychological conflict, personal conflict, social method, psychological method.

Muallif badiiy asarda nafaqat o'z estetik idealini, balki muayyan jamiyatdagi mavjud muammolar va unga munosabatini ham yozadi. Hikoyalarda bu jarayon aniq namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Chunki hajman kichik bu janr voqealarni ixcham va ta'sirli tarzda ifodalashni talab qiladi. Hikoya syujeti tarkibidagi konfliktlar personajlarning ta'sirchanligini oshirishga, asarning mohiyatini chuqurroq yoritishga xizmat qiladi. Adabiyotshunos olim Abdulla Ulug'ovning bayon qilishicha, syujetning salmog'i, ko'lami,

ta'sirchanlik darajasi badiiy konfliktga bog'liq. Ma'lumki, hayotimizdagi barcha yo'nalishlarda konflikt kishining o'zidan, ishlaridan, boshqalardan noroziligini, qanoatlanmasligidan kelib chiqadigan hissiy kechinma. Konflikt muammoli vaziyatlarni, natijalarga sabab bo'ladi. Insonni ruhan azoblovchi tushkunlikka ham olib kelishi kuzatiladi. Konfliktning mohiyati zamon, makon bilan jips bog'liq. Shunday konfliktlar bo'ladiki, davr o'tishi bilan ular barham topadi. Dunyoda yaratilgan asarlar konflikti zaminida taqdir taqozosi turgan bo'lsa, o'rta asrlardagi asarlarda ilohiy kuch bilan insondagi shaytoniy xirs konfliktning asosini tashqil etadi. Bugungi kunda psixologlar konfliktlarning sababi va yechimini o'rganishda sotsiologiya doirasidagi yangi fan konfliktologiyaga¹ tayanishmoqda. Bu hikoyalarda ham shunday vazifani bajaradi. Jumladan, arab hikoyachiligida qahramonlar o'rtasidagi konflikt, asosan, islom dini tamoyillariga rioya qilmaslik natijasida kelib chiqqanligi hikoya qilinadi. Bunga badiiy asarda personajlarning o'zaro muomalasida adolatsizlik, xiyonat masalalari tufayli kelib chiqqan ijtimoiy ziddiyatlarni keltirish mumkin. Romantizm davrida voqelik, muhit, shart-sharoit bilan ideal o'rtasida, yaxshilik bilan yomonlik, ruhiy erkinlik bilan turmush tashvishlari o'rtasidagi ziddiyat hukmronlik qilgan, realizm tantana qilgan davrda inson mohiyati, uning istagi, imkoniyati bilan ijtimoiy-tarixiy shart-sharoit zaminida konflikt yuzaga kelgan. Shunday boqiy mavzular borki (masalan, saxiylik va xasislik, vafodorlik va bevafolik, tiriklik va o'lim), bularda konflikt har bir davrning ma'naviy, ruhiy talab va ehtiyojlaridan kelib talqin qilinadi. Sho'rolar davrida — sotsialistik realizm metodi hukmronlik qilgan davrda konflikt zaminiga ijtimoiy-sinfiy antagonizm qo'yilgan va bu ziddiyatning inqilobiy yo'l bilan yechilishi talab qilingan, individual axloq bilan jamoa ongi o'rtasidagi, xususiy mulkchilik ruhiyati bilan jamoat, xalq manfaati o'rtasidagi kurash tarzida qo'yilgan.

Konflikt² shakl unsuri bo'lib, u asar badiiy konsepsiyasini ifodalashda muhim o'rin tutadi. Asarlarda konfliktning turli ko'rinishlari qo'llanadi. Eng yaxshi asarlarda qahramon qalbidagi kurashlar, hissiyotlar to'qnashuvini ko'rsatishga alohida e'tibor beriladi. Badiiy asar syujeti muayyan zamon va makonda kechgan voqealardan tarkib topadi. Voqealar esa odamlarning xatti-harakati (eshitishi, ko'rishi, kuzatishi va boshqa), o'zaro munosabati tufayli yuzaga keladi. Syujet bilan konflikt orasida ikki tomonlama aloqadorlik mavjud. Birinchidan, syujet konfliktlarni umumlashtirib namoyon qiladi. Ikkinchidan esa konflikt syujetni harakatga keltiradi. Badiiy asar syujetidagi voqealar tizimi konfliktning boshlanishi, keskinlashishi va yechimidan iboratdir. Ingliz adabiyotshunosi Terri Iglton³ning fikricha, kishilar adabiy-badiiy asarlarni muayyan darajada o'zining shaxsiy masalalari bilan bog'liq holda talqin qiladi. Shaxsiy tashvishlarimizdan esa hech qachon xalos bo'la olmaymiz. Shu ma'noda badiiy konflikt shakllari ham real hayotdagi ko'rinishlarga o'xshash turlarga ajratiladi. Ular shartli tarzda quyidagicha guruhlariga ajratiladi: ichki ruhiy konflikt (qahramon qalbidagi kurashlar, hissiyotlar to'qnashuvi), ijtimoiy konflikt (turli guruhlar o'rtasidagi ziddiyatlar), oilaviy konflikt (oila a'zolari o'rtasidagi mojarolar), shaxsiy-intim konflikt (shaxs va boshqalar manfaati

¹ Konfliktologiya (lat. conflictus-to'qnashuv, manfaatlar to'qnashuvi, jiddiy kelishmovchilik, keskin nizo; yunon. lógos-ta'limot) - mojarolar haqidagi fan[1][2]; inson o'zaro ta'sirining turli sohalarida yuzaga keladigan har xil turdagi ziddiyatli hodisalar bilan ishlash amaliyotini tavsiflash, o'rganish va rivojlantirishga nazariy, uslubiy va uslubiy yondashuvlarni birlashtirgan maxsus fanlararo soha [3] [4]. Konfliktologiya ko'plab fanlar, birinchi navbatda sotsiologiya va psixologiya chorrahasida rivojlangan ilmiy bilimlarning eng yosh tarmoqlaridan biridir.

² Konflikt (lotincha conflictus –to'qnashuv) personajlarning asar syujetida o'z badiiy ifodasini topadigan o'zaro to'qnashuv va kurashlari, qahramon bilan muhit orasida yoki uning ichki olami – ruhiyatida kechadigan ziddiyatlar, qarama-qarshiliklardir.

³ Terens Frensis Eagleton FBA [4] (1943-fevralda tug'ilgan) ingliz adabiy nazariyotchisi, tanqidchisi va jamoat ziyolisi. U ingliz adabiyotining taniqli professori, Lankaster universitetida faoliyat yuritgan. Iglton qirqdan ortiq kitob nashr etgan, eng mashhur kitobi adabiyot nazariyasi: kirish (1983), 750 000 dan ortiq nusxada sotilgan.

o'rtasidagi kurash) kabilar. Konfliktning uch turi mavjud: xarakterlararo kurash, qahramon va muhit o'rtasidagi ziddiyat va ichki(ruhiy) ziddiyat. Badiiy asarlarda konfliktning ushbu turlari aralash holda namoyon bo'ladi. Chunki qahramonlarning dunyoqarashi, maqsadi, ma'naviy-axloqiy xususiyatlari birbiri bilan farq qiladi. Bu esa ular o'rtasida turli ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Qahramon ruhiyatidagi ziddiyatlar uning o'zi yashayotgan muhitdagi sharoit, tartibdan noroziligi, urf-udum, taomillardan aziyat chekishi, boshqalarning qarshiligiga duch kelib, mushkul ahvolga tushishidan tug'iladi. Mualliflar o'z qahramonlarida yashirin xususiyatlarni ochish, murakkab vaziyatlarni yaratish uchun ziddiyatdan foydalanadilar. Kitobxonlarni bunday murakkabliklar o'ziga jalb qiladi, chunki ular haqiqiy insoniy tajribalarni aks ettiradi. Bu o'quvchini ular o'ylamagan masalalardan xabardor qiladi va jamiyatni turli nuqtayi nazardan tushunishimizga yordam beradi. Ichki yoki tashqi qarama-qarshiliksiz qahramonlar har doimgidek hayotlarini davom ettiradi, bu esa reallikdan yiroq syujet bo'ladi. Hikoyadagi ziddiyat ko'pincha hikoyani davom ettiruvchi kurash sifatida tasvirlanadi. U xarakter rivojlanishini kuchaytiradi va muhim mavzuni ta'kidlaydi. Qarama-qarshiliklarsiz, ko'plab syujetlar statik bo'lib qoladi, chunki qahramonlarni boshqaradigan hech narsa yo'q. Ushbu kurashlar - ichki yoki tashqi - muallifning umumiy xabarini qanday shakllantirishini tushunish juda muhimdir. Ko'pgina badiiy va dramatik asarlarda hikoyadagi ziddiyat nima ekanligini bosh qahramonning maqsadlari va ularga qarshi kurashuvchi kuchlar o'rtasidagi taranglikda ko'rish mumkin. Yozuvchi ziddiyatni ikki yoki undan ortiq "tomon" ishtirok etadigan har qanday vaziyat deb biladi. Masalan, ikkita yaxshi qahramon o'rtasidagi ziddiyat: bitta sevikli yor uchun kurashayotgan ikkita eng yaqin do'st yoki kichik shaharchada mijozlar uchun raqobatlashayotgan ikkita biznes egasi. Ular bir-biriga mos kelmaydigan maqsadlarga ega ekanligini tushunadilar. Ingliz adabiyotshunosi Robbins fikricha, har qanday ziddiyat uchta tarkibiy qismni o'z ichiga oladi:

1. Maqsadlarning mos kelmasligi.
2. Munosabatlarning nomuvofiqligi.
3. Xatti-harakatlarning mos kelmasligi.

Shuningdek, u konfliktning ichki va tashqi ko'rinishda uchrashini qayd etgan. Ichki konflikt qahramonning monologidan anglashiladigan hissiy ziddiyatlar bo'lsa, tashqi konflikt sevgisi uchun kurash, mansab uchun harakat kabi jarayonlarda foydalanilishini aytgan. Kamchilik xarakterning ichki kurashi uchun katalizator bo'lib xizmat qilishini bayon etgan.

Ichki ziddiyat nafaqat qahramonning hissiy manzarasini shakllantiradi, balki o'quvchilarning shaxsiyat, shuhratparastlik yoki axloq kabi asosiy mavzularni qanday qabul qilishiga ham ta'sir qiladi. Uilyam Shekspirning "Hamlet" asarini olsak, shahzodaning eng mashhur yakkaxoni— "bo'lish yoki bo'lmaslik" - uning ichki ziddiyatini ko'rsatadi. U otasining o'limi uchun qasos olish istagi va axloqiy bezovta qiluvchi harakat qilishdan qo'rqadi. Hatto "shunday qilib, vijdon hammamizni qo'rqitadi" kabi qisqacha satr Hamletning ichki kurashini ochib beradi.

Tashqi ziddiyatni o'rganish ichki ziddiyatlar xarakter ongida sodir bo'lsa, tashqi ziddiyat shaxs tashqi dunyo bosimiga duch kelganda paydo bo'ladi. Ushbu bosimlarga boshqa belgilarning qarshiliklari, ijtimoiy taxminlar yoki hatto tabiat kuchlari kirishi mumkin. Xarakter va tashqi to'siq o'rtasida keskinlik yaratib, mualliflar qahramonning kuchli tomonlari, qo'rquvlari va motivatorlarini ko'proq omma oldida ta'kidlaydilar. Meri Shellining

“Frankenshteyn” asarida Viktor Frankenshteyn va uning ijodi ayb, g‘azab va umidsizlikning fojiali ta’sirida bir-biriga qarshi turadi. Asar konflikti insoniyatning nazoratsiz kuchlarga qarshi oqib kelishini ta’kidlaydi. Frankenshteynda to’g’ridan-to’g’ri namoyish etilmagan bo’lsa-da, muzdek Arktika romanning boshlanishidagi muhit so’zma-so’z va ramziy kurashlarni bashorat qiladi. Tabiat tasviri inson va uning istaklari o’rtasidagi ichki notinchlikni aks ettiradi.

Ichki va tashqi konflikt shakllaridan tashqari badiiy konfliktlar quyidagi turlarda namoyon bo’lishi mumkin: ijtimoiy, ruhiy(psixologik), shaxslararo. Ijtimoiy konflikt (Ijtimoiy konflikt: Ijtimoiy yoki madaniy ziddiyatlar, masalan, sinf, irq yoki gender o’rtasidagi kurash) muayyan insonning jamiyatdagi boshqa shaxslar bilan to’qnashuvlarni ifodalasa, ruhiy konflikt shaxsning ichki kechinmalari bilan ziddiyatini bildiradi. Shaxslararo konflikt yaklama-yakka shaxsiy kelishmovchiliklarni namoyish etadi. Mazmuni, yo’nalishi nuqtayi nazaridan konfliktning maishiy, axloqiy, ijtimoiy, siyosiy, falsafiy va boshqa turlari mavjud. Voqealar rivoji davomida ijtimoiy konflikt siyosiy konfliktga, siyosiy konflikt falsafiy konfliktga aylanishi mumkin. Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov “Adabiyotshunoslik lug’ati”da konfliktning uch turini farqlagan:

- 1) xarakterlararo;
- 2) qahramon va muhit;
- 3) ichki (psixologik).

Hikoyadagi ziddiyat nima ekanligini tushunish qahramonlar nima uchun shunday harakat qilishini va bu harakatlar syujetni qanday boshqarishini tushunishga yordam beradi. Konflikt belgilarni qiyin vaziyatlarga javob berishga, shaxs sifatida o’sishga va ularning e’tiqodlariga shubha qilishga undaydi. Ziddiyatlar nafaqat hikoyaning yo’nalishini shakllantiradi, balki muallif kitobxon bilishini istagan axloqiy savollar va ijtimoiy masalalarga ham urg’u beradi. Bugungi kunda yozuvchilar zamonaviy o’zbek hikoyalarida ham badiiy konflikt shakllari orqali o’zbek kitobxonlariga dolzarb axloqiy muammolarni ko’ndalang qo’yishmoqda. Obraz yaratishda g’arb asarlaridagi modern fantastika va o’zbekona milliy unsurlarni qorishiq holatda qo’llab kelayotgan ijodkor Nazar Eshonqul “Qo’l” hikoyasidagi konflikt turlarini ko’rib chiqsak. Hikoyada qishloqda yashaydigan oila manzarasi tasvirlangan. Bosh qahramon Salom tegirmonchi obrazida biz ichki(psixologik) konfliktni ko’rishimiz mumkin. Chunki u har doim o’zidan xatti-harakatlaridan norozi. Daromadi kamligi, oilasiga vaqt ajrata olmasligi uni hissiy qiynaydi. Uni muallif “bilimsiz, juda mehnatkash, ziqna, jasur, baquvvat panjali, o’zini gunohkor deb hisoblaydigan” inson sifatida ta’riflaydi. Salom tegirmonchi obrazining o’zini gunohkor deb sanashiga uyidan jahl bilan cho’lga ketib qolgani va qaytganida otasi vafot etgani voqeasini asos qilib keltirgan. Bu “gunohkor” sifati personajning ichki konfliktini oshirgan. Mulla Keldiyor obrazi va qishloqdoshlari orasida tashqi (ijtimoiy) konflikt ifodalangan. Yozuvchi uni militsiya xodimi kabi kuzatuvchan, oshni sevadigan, soxta dindor, ikkiyuzlamachi inson qiyofasida tasvirlagan. Sababi Keldiyor hamqishloqlari bilan murosqa qila olmagan, uni ko’pchilik yoqtirmagan. Asarda ilmsizlik, aqidaparastlik, ikkiyuzlamachilik kabi illatlar personajlararo konflikt yordamida ta’sirchan hikoya qilingan. Muallif obrazlarni sifatlash orqali konkret shakl va xarakter yaratgan.

Xulosa qilib aytsek, badiiy asarlarda konflikt qahramonning harakatini belgilab, voqealarning rivojlanishi, syujetning kengayishini ta’minlaydi.

Adabiyotlar/Literatypa/References:

1. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. – T.: Yangi asr avlodi, 2004.
2. Isajon Sulton nasri poetikasi. Maqola. N. N. Sultonova Qarshi davlat universiteti.
3. Jo'raqulov U. Hududsiz jilva. Toshkent, Fan. 2006
4. Jo'raqulov U. Nazariy poetika masalalari. G'afur G'ulom NMIU, Toshkent. 2015
5. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. - T.: O'qituvchi, 2005.
6. Umurov H. Tahlil chizgilari. Toshkent., 2014.
7. Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – “Akademnashr”, Toshkent., 2010.
8. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. G'afur G'ulom NMIU. Toshkent., 2017
9. Хализев В.Е. Теория литературы. Учебник. - М.: Высшая школа, 1999.
10. Fitrat. Adabiyot qoidalari. –T.: O'qituvchi ,1995.
11. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. –Т.: Ўзбекистон, 2002.
12. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1979.
13. Теория литературы. В2-х т. Т. 1. Бройтман С.Н. Историческая
14. Поэтика: учеб.Пособие / Под ред. Н.Д.Тамарченко.– Москва: Академия, 2004.
15. Теория литературы. В 2-х т. Т. 2: Учеб. пособие. Бройтман С.Н.
16. Историческая поэтика /Под ред. Н.Д.Тамарченко.– Москва: Академия, 2004.

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

V RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, 11-avgust

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM
ISTIQBOLLARI. V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 96 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 11-avgust

ISBN 978-9910-09-280-0

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.